AT "Aloqabank"da 2026-yil yanvar-sentabr oylarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha
HISOBOT

I. Bankning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to'g'risida umumiy axborot

AT "Aloqabank"da korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish bo'yicha 2026-yilga mo'ljallangan harakatlar dasturi" ishlab chiqilgan, tarkibiy bo'linmalar tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olingan va chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur chora tadbirlar 18-banddan iborat bo'lib, joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 16 ta bandlarining ijrosi ta'minlandi.

2021 yilda tashkil etilgan Komplayens nazorati boshqarmasi Bank Boshqaruvining 2026-yil 16-apreldagi 289-sonli qarori bilan Komplayens nazorati boshqarmasi qayta tashkil etildi va Boshqarma shtat birliklari butlandi.

Bank Komplayens nazorat boshqarmasining 2026-yilda amalga oshiradigan ishlari, ichki me'yoriy hujjatlarni belgilangan normalarga muvofiqlashrish orqali yangitdan qabul qilish hamda yo'l xaritada qayd etilgan vazifalarni ijrosini ta'minlash bilan bog'liq boshqa masalalar yuzasidan taqdimot o'tkazildi va chora tadbirlar belgilab olindi.

II. Siyosat va tartib-taomillar

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha sohalarni tartibga soluvchi jami 14 ta normativ-huquqiy va ichki hujjatlar bo'lib, "Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati", "Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha" yo`riqnoma, "Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha" yo`riqnoma loyihasi tayorlanib Kuzatuv kengashi tomonidan, hamda Boshqaruv a'zolari tomonidan "Xodimlarni rotatsiya qilish" tartibi tasdiqlandi va "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga o'z tashabbusi bilan ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibi" loyihasi tayorlanib tasdiqlash uchun Kuzatuv kengashi ga kiritildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 6-mayda 3829-son bilan ro'yxatidan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (bundan buyon matnda "Agentlik" deb yuritiladi) direktorining 2026-yil 28-martdagi 84-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to'g'risida"gi namunaviy nizom talablariga muvofiq Komplayens nazorat boshqarmasining Nizomi yangi tahrirda ishlab chiqildi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Bank Boshqaruvi bilan kelishilib, Bankning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlandi.

Komplayens nazorat boshqarmasi tomonidan boshqa ichki me'yoriy hujjatlar yangi tahrirda ishlab chiqilib, tegishli bo'linmalarga kelishish uchun kiritildi.

III. Xavf-xatarlarni baholash

Bankda korrupsiyaga moyil bo‘lgan jarayonlar, xizmatlar va lavozimlar kesimida tahlil va Markazlar kesimida ma’lumotlar umumlashtirilib, Bank Boshqaruviga kiritildi hamda Boshqaruv raisining tegishli ko‘rsatmalariga asosan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqori va o‘rta bo‘lgan vazifalarni amalga oshiruvchi tarkibiy bo‘linma va hududlar bo`yicha rahbarlar ro‘yxati shakllantirilib, ularni tegishli tartibda rotatsiya qilib borish, maxsus o‘quv kurslarda malakasini oshirib borish ishlari tashkillashtirildi.

“E-anticor” platformasi orqali bankning korrupsiyaga moyilligi yuqori va o‘rta bo‘lgan jami **22 ta** funksiyalar belgilab olindi va xavflarni minimallshtirish bo‘yicha nazorat mexanizmlari belgilandi.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib taomillar

1-§. Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni hamda AT ”Aloqabank”ning ”Manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, uning oldini olish va tartibga solish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablariga ko‘ra, bankda manfaatlar to‘qnashuvi holatlari kelib chiqishini oldini olish maqsadida xodimlar tomonidan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har yili deklaratsiya tarzida taqdim etilmoqda.

Xususan, AT “Aloqabank” xodimlari tomonidan jami **1 876 ta** “Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi deklaratsiyalar taqdim etilgan bo‘lib, shundan:

- **1 422 tasi** yillik;
- **228 tasi** boshqa ishga o‘tkazilgan xodimlar tomonidan;
- **226 tasi** ishga qabul qilinayotgan nomzodlar tomonidan taqdim etilgan.

Olib borilgan o‘rganishlarda **45 ta** holatda yaqin qarindoshlarning Bank tizimida ishlashi ko‘rsatilgan. Biroq bugungi kunda **11 ta** holatda yaqin qarindoshlarning mehnat shartnomalari bekor bo‘lgani natijasida nepotizm holatlari bartaraf etilgan.

Biroq, o‘rganish davomida ishchi xodimlar **8 ta** holatda yillik deklaratsiyani taqdim qilmagan bo‘lsa, **6 ta** holatda yaqin qarindoshlari tizimda ishlashi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni deklaratsiyalarda oshkor qilmagan.

Yuqoridagi aniqlangan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holatlar Bankning Odob-ahloq komissiyasiga kiritildi, quyidagi nazorat choralari ko‘rildi:

- **14 ta** xodim qat‘iy ogohlantirildi
- **34 ta** profilaktik suxbatlar o‘tkazildi.
- **3 ta** xodim funksiyalari cheklandi;
- **2 ta** xodim rotatsiya qilindi;

Bankning barcha xodimlari tomonidan har yil boshida, shuningdek yangi ishga kiruvchi va lavozimi o‘zgarayotgan xodimlar tomonidan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida deklaratsiyalarni qat’iy to‘ldirib borilishini ta’minlash vazifasi yuklatildi.

Shuningdek, **187 holatda** Bank xodimlarining tadbirkorlik subyektlarida direktor yoki ta'sischi sifatida ishtirok etishi manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqaruvchi risk sifatida baholangan. O'rganishlar davomida ro'yxatda ko'rsatilgan **30 ta** holatda xodimlar bilan bugungi kunda mehnat shartnomalari bekor qilingan.

Bankning rahbar va mas'ul xodimlari **187 ta** holatda tadbirkorlik subyektlarida direktor yoki ta'sischi sifatida ishtirok etish holatlari tahlil qilinganda, **51 ta** holatda korxonalarda Bank xodimlari direktor bo'lsa, **136 ta** holatda ta'sischi ekanligi aniqlandi.

Shu bilan birga, mazkur korxonalarning:

- 133 tasi faoliyat ko'rsatayotganligi soliq to'lash majburiyatiga ega ekanligi;
- 44 tasi hozirda faoliyat ko'rsatmayotganligi;
- 8 tasi ixtiyoriy tugatish jarayonida ekanligi;
- 2 tasi soliq to'lash majburiyatiga ega emas ekanligi aniqlandi.

E'tiborlisi, **43 ta** korxonaning ta'sischilari AT "Aloqabank"da fuqaroviy huquqiy tusdagi shartnomalar orqali xizmat ko'rsatgan.

Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi xavflarini oldini olish maqsadida, Bankning xodimlari **1 oy muddatda** tadbirkorlik subyektlarida ta'sischi sifatida ishtirokdan chiqishi yoki direktor sifatida ishlamasligi bo'yicha tegishli ko`rsatmalar berildi.

2-§. Korrupsiyaga qarshi qoidalarni Bank shartnomalariga kiritish

Bank shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalarni kiritish — bu bankning ochiqligini ta'minlash va noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olishga qaratilgan majburiy talabdir.

Bank o'z faoliyatida barcha turdagi kelishuvlarga korrupsiyaga qarshi shartlari kiritmoqda:

- **Mijozlar bilan shartnomalar**: Bank xizmatlarini ko'rsatish va bank hisobvarag'i shartnomalari;
- **Xo'jalik shartnomalari**: Bankning moddiy-texnik ta'minoti va boshqa xo'jalik faoliyati bo'yicha tuziladigan bitimlar;
- **Kontragentlar va biznes hamkorlar**: Tashqi investorlar, moliya institutlari va xarid jarayoni ishtirokchilari bilan tuzilgan shartnomalar;
- **Mehnat shartnomalari**: Bank xodimlari bilan tuziladigan shartnomalarda korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik majburiyatlari.

3-§. Kontragentlarni tekshirish

Komplayens nazorat boshqarmasi o'z faoliyati davomida, Bankda xaridlar faoliyatini amalga oshirishda shaffoflikni ta'minlash hamda manfaatlar to'qnashuvi holatlarini xavfi oldini olish maqsadida Xaridlar departamenti bilan hamkorlikda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan

tavakkalchiliklarni baholab borish uchun **850 dan** ortiq korxonalar va kontragentlar o‘rganilgan.

4-§. Ishga nomzodlarni tekshirish

Xodimlarni ishga qabul qilish jarayonida shaffoflikni ta‘minlash maqsadida komissiya tashkil etilgan va xar bir nomzod komissiya tomonidan suhbatdan o‘tkazilgan holda ishga qabul qilinmoqda hamda komissiyaning har bir yig‘ilishi onlayn tartibda o‘tkazilib tasvirga olib borish orqali faoliyati o‘rganib borilmoqda.

Yangi ishga kirmoqchi bo‘lgan nomzodlarning **283 tasiga** ijobiy xulosa, **3 tasiga** salbiy xulosa berilgan.

V. Ta‘lim va kommunikatsiya

Bank xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini oldini olish sohasida huquqiy savodxonligini oshirish bo‘yicha tarkibiy tuzilmalar, hududiy xizmat ko‘rsatish markazi xodimlariga seminarlar va o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazilmoqda.

Jumladan, bank faoliyatining ochiqligini ta’minlash, korrupsiyaviy xatarlarni oldini olish va bartaraf etish, sohada zamonaviy korrupsiyaga qarshi kurash tizimlarini joriy etish mavzusida Komplaens nazorat boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan ko‘rgazmaviy ma’ruzalari tashkil qilinmoqda.

AT “Aloqabank”ning 21.04.2026-yildagi 214-F-son Farmoyishi qabul qilinib, hisobot davrida **1800 dan oshiq** xodimlar ishtirokida hududiy markazlarda korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida o‘quv seminarlari, davra suhbatlar hamda faoliyati ochiqligini ta’minlash, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish sohada zamonaviy korrupsiyaga qarshi kurashish tizimlarini joriy etish masalalariga bag‘ishlangan “Ochiq eshiklar kuni” tadbirlari o‘tkazildi. Bundan tashqari barcha HKXKM rahbarlari har oyda 1 marotaba “Korrupsiyaga qarshi kurashish” mavzusida xodimlarga o‘quv seminarlari o‘tib kelishmoqda.

Shuningdek, Bankning **135 nafar** xodimlari “Davlat xizmatida halollikni ta‘minlash”, “Davlat xizmatida korrupsiyaga qarshi kurashish”, “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini samarali ishlashini ta‘minlash” va “Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish” mavzularida Huquqni muxofaza qilish Akademiyasining maxsus o‘quv kurslarida o‘qib, tegishli sertifikatlarni qo‘lga kiritdi.

VI. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to‘risidagi xabarlar

AT “Aloqabank”da 2026-yil yanvar-avgust oylarida **6 ta** murojaat kelib tushgan bo‘lib, murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra, mualliflariga tegishli tartibda javob xati asosida tushuntirishlar berilgan.

Shuningdek bankning rasmiy saytida ishonch telefoni, maxsus elektron pochta manzili, Instagramm, facebook va telegramm orqali Korrupsiya haqida habar berish imkoni tashkil etilgan.

AT "Aloqabank" tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari "Call-center" tomonidan ro'yxatga olish, belgilangan muddatda ko'rib chiqish, murojaatda ko'tarilgan masalalarni ijobiy hal etilganligi yuzasidan kunlik monitoring o'rnatilgan hamda natijalari yuzasidan Komplayens nazorat boshqarmasi tomonidan nazorat va tahlil qilib borilmoqda.

Boshqaruv raisi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurash yuzasidan murojat qilib, ushbu murojaatlari rasmiy sayt va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilindi.

VII. Monitoring va nazorat

Joriy yilning o'tgan davri mobaynida Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabarnomalar kelib tushmagan bo'lsada, Komplayens nazorat boshqarmasi tomonidan **3 ta** holatda Bank kontragenti bilan manfaatlar to'qnashuviga kirishish holati aniqlanib, tegishli chora ko'rilgan.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

Hisobot davrida Komplayens nazorat boshqarmasi tomonidan **19 ta** xizmat tekshiruvlar o'tkazilgan, shundan 14 tasi huquqni muhofaza qiluvchi idoralardan kelgan taqdimnomalarga asosan, 3 tasi monitoring va nazorat o'rganish, 2 tasi HKXKM direktori tomonidan yuborilgan xat asosida o'rnatilgan tartibda hizmat tekshiruvlari o'tkazilgan.

Huquqni muhofaza qiluvchi idoralardan kelgan taqdimnomalarga asosan o'tkazilgan xizmat tekshiruvlardan **13 tasi** bo'yicha bank xodimlarining harakatlarida qonunbuzilish holatlari aniqlanmagan, **6 ta** holatda bankning xodimlari va boshqalarning harakatlariga qonuniy baho berish uchun o'rganish hujjatlari Huquqni muxofaza qiluvchi idoralarga yuborilgan.

Monitoring va nazorat o'rganish tartibida o'tkazilgan xizmat tekshuruvi materiallari Odob-ahloq komissiyasida ko'rib chiqilib, natijasiga ko'ra **6 nafar** xodimga nisbatar "jarima" intizomiy jazosi va **6 nafar** xodim bilan mehnat shartnomasi mehnat qonunchiligaga muvofiq bekor qilingan.

IX. Komplayens tavakkalchiligi

Bankda komplayens tavakkalchiliklarini boshqarish tizimi zamonaviy risklarga asoslangan yondashuv asosida takomillashtirilib, passiv monitoring tizimidan proaktiv boshqaruv modeliga o'tkazildi.

Komplayens tavakkalchiliklarini samarali boshqarish maqsadida aniqlangan kamchiliklar va tavakkalchilik omillari Kuzatuv kengashi hamda Bank Boshqaruvi darajasida strategik masala sifatida muhokama qilinmoqda. Bu esa bankda korporativ boshqaruvning shaffofligini ta'minlash va javobgarlik mexanizmlarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Bank faoliyatiga nisbatan qo'llanuvchi qonunchilik hujjatlari va bankning ichki hujjatlari talablari buzilganligi hamda Markaziy bank va boshqa tegishli organlarga ishonchli bo'lmagan hisobotlar taqdim qiliganligi holatlari aniqlanmagan.

Bugungi kunda bankning 66 **nafar** xodimlari tomonidan bankning odob-axloq kodeksi talablari buzilishi holatlari aniqlangan bo‘lib, ularga nisbatan tegishli chora ko‘rish yuzasidan 8 **martta** Odob-axloq komissiyasi yig‘ilishlari o‘tkazilgan hamda tegishli bayonnomalar rasmiylashtirilgan.

Shu bilan birga, 47 **ta** manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini bartaraf etish bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar berilgan.

Shuningdek, Bank tomonidan ishlab chiqilayotgan barcha yangi bank mahsulotlari, xizmatlar va loyihalar amaliyotga joriy etilishidan oldin komplayens ekspertizasidan o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur jarayon davomida mahsulotlarning amaldagi qonunchilik, Markaziy bank me‘yoriy hujjatlari hamda ichki siyosatlarga muvofiqligi baholanmoqda.

Xususan, 16 **ta** korporativ hamda 44 **ta** chakana bank mahsulotlari o‘rganilib, ular bo‘yicha:

kredit shartlarining amaldagi qonunchilik talablariga mosligi;

foiz stavkalari va to‘lovlar shaffofligi;

mijozlarni identifikatsiya qilish jarayonlari;

monitoring va ichki nazorat mexanizmlarining samaradorligi;

manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish choralarining mavjudligi

yuzasidan tegishli xulosalar shakllantirildi hamda bo‘linmalarga taqdim etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 21-apreldagi PF-71-son Farmoni ijrosini ta’minlash, shuningdek, davlat resurslari ishtirokidagi yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishda oshkoralik, hisobdorlik va sog‘lom raqobat muhitini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 3-fevraldagi 44-son qarorining ilovasi bilan tasdiqlangan “Yirik investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish jarayonida korrupsiyaga qarshi hamda raqobatni ta’minlovchi standartlarni joriy etish tartibi to‘g‘risida”gi nizomda loyihani korrupsiyaga qarshi ekspertizadan-davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari tomonidan loyihani rejalashtirish, moliyalashtirish, tayyorlash, davlat xaridlarini amalga oshirish va ekspluatatsiya, monitoring qilish bosqichlarida korrupsiya holatlarini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan omillar va xavflarni aniqlash hamda tahlil qilish yuzasidan chora tadbirlar belgilab olingan.

Bankning Komplayens nazorat boshqarmasi va Yuridik xizmati tomonidan ichki me‘yoriy hujjatlarni belgilangan normalarga muvofiqlashtirish orqali yangitdan qabul qilish hamda yo‘l haritada qayd etilgan vazifalardan kelib chiqib ichki me’yoriy hujjatlarni ekspertizadan o’tkazilib 11 ta ijobiy xulosalar berildi.

Bankning “ZOOMRAD” va “Aloqa-biznes” mobil ilovalarida “Fikr bildiring” bo‘limi joriy etilib, mijozlarga bank xizmatlari sifati, xizmat ko‘rsatish jarayonidagi muammolar, korrupsiyaviy holatlar hamda boshqa salbiy omillar yuzasidan murojaat va takliflar yuborish imkoniyati yaratildi. Ushbu tizim

murojaatlarni tezkor ko‘rib chiqish va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Kredit ajratish jarayonlarida inson omilini kamaytirish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish maqsadida avtomatlashtirilgan “Skoring” tizimi va anderrayting mexanizmlari amaliyotga tatbiq etilgan. Natijada kredit arizalarini baholash jarayonining shaffofligi va xolisligi ta‘minlanmoqda.

Bundan tashqari, kredit mablag‘larini rasmiylashtirish jarayonida mijoz va kafil shaxslarni identifikatsiya qilish uchun zamonaviy “Face ID” texnologiyalari joriy etilgan bo‘lib, mazkur mexanizm firibgarlik, qalbakilashtirish hamda uchinchi shaxslar nomidan noqonuniy kredit rasmiylashtirish xavfini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, bankda komplayens madaniyatini shakllantirish maqsadida xodimlar uchun muntazam ravishda komplayens tavakkalchilik, korrupsiyaga qarshi kurashish, etik me‘yorlarga rioya qilish, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish hamda “Halollik siyosati” bo‘yicha 1 800 dan ortiq xodimlarga 31 ta **o‘quv** seminar va treninglar tashkil etildi.

Mazkur amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida bank faoliyatida komplayens nazoratining samaradorligi oshirilib, tavakkalchiliklarni boshqarish tizimining barqarorligi va shaffofligi ta‘minlanmoqda.

IX. Xulosalar

AT "Aloqabank" tizimida korrupsiyaga qarshi choralarni amalga oshirish natijalari tahlili bankning Komplayens-nazorati boshqarmasi va Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasi ma‘lumotlariga asosan qoniqarli deb baholanmoqda.

Tizimda raqamlashtirish darajasining oshishi va nazorat mexanizmlarining kuchaytirilishi natijasida inson omili kamayib, moliyaviy amaliyotlar shaffofligi sezilarli darajada yaxshilandi.

Korrupsiyaga qarshi amaldagi xalqaro standartlar talablari asosida bankning barcha ichki me‘yoriy hujjatlari korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazilib, "E-anticor" elektron platformasi bilan integratsiya qilish imkoni yaratilmoqda.

Hududlarda kredit ajratish, kadrlar rotatsiyasi va boshqa korrupsion xavflar inventarizatsiya qilindi. Masofaviy nazorat tizimlari va sirli mijoz amaliyoti orqali joylardagi muvofiqlik darajasi tekshirilmoqda.

Bank xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish borasida maxsus o‘quv seminarlari va anonim so‘rovnomalar o‘tkazildi.

O‘tkazilgan so‘rovnomalar jarayonida bank tizimida faoliyat yuritayotgan 1 760 nafar xodimdan 734 nafari, ya’ni 41,7 foiz xodimning ishtiroki ta’minlandi. Shuningdek, 47 nafar mijoz elektron shaklda so‘rovnomada qatnashdi. Qatnashgan mijozlarning 85,1 foizini jismoniy shaxslar, 10,6 foizini yuridik shaxslar tashkil etdi.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, bank tizimida korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi holatlari mavjud emasligi bo‘yicha ijobiy ko‘rsatkich o‘rtacha

77 foizni tashkil etdi. Ayrim hududiy kompleks xizmat ko‘rsatish markazlarida mazkur ko‘rsatkich nisbatan yuqori baholangan bo‘lib, xususan Jizzax HKXKMda – 9,7 foiz, Qoraqalpog‘iston HKXKMda – 14,6 foiz hamda Bosh ofisda – 12,5 foiz ishtirokchilar ayrim korrupsiyaviy xavf va manfaatlar to‘qnashuviga oid holatlar mavjudligini qayd etgan.

Mijozlar tomonidan esa bank tizimida korrupsiyaviy holatlar umuman mavjud emasligi bo‘yicha ko‘rsatkich 48,9 foizni tashkil etdiAT "Aloqabank" korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati barqaror-qoniqarli deb baholanadi. Avvalgi davrlarga nisbatan tizimli qonunbuzilishlar va xavflar darajasi profilaktik choralar va IT-yechimlar hisobiga bartaraf etilgan. Bank korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash hamda bartaraf etish salohiyatiga ega.

X.
XI. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tadbirlar rejasi

1. “E-anticor” platformasi orqali bankning korrupsiyaga moyilligi yuqori va o‘rta bo‘lgan jami **22 ta** funksiyalardagi korrupsiyaviy xavflarni minimallshtirish bo‘yicha choralar ko‘rish.

2. Bank xizmatlarini sifatini baholash, kelib chiqishi mumkin bo‘lgan xatarlar va suniy to‘siqlarni aniqlash hamda ularni oldini olish maqsadida 2026-yil davomida bankda “Sirli mijoz” tadbirlarini o‘tkazib borish.

3. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyatini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida ISO 37001:2025 sertifikatini olish uchun belgilangan talablarni bajarish hamda tegishli organdan sertifikat olish.

Komplayens nazorat boshqarmasi boshlig‘i **E.V. Amonov**